

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY PEDAGOGIK MEROSIDAN O'QUV - TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Nargiza Kutlimuratova

Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi

E-mail:qnargiza@mail.ru

Tel: (99) 3410022

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qomusiy bilim egasi bo'lgan Husayn Voiz Koshifiyning asarlaridagi pedagogik qarashlar, yoshlarni komil inson qilib kamolga yetkazishda ta'lim-tarbiyani o'rni va allomani ilmiy merosining bugungi kunda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

***Kalit so'zlari:** Husayn Voiz Koshifiy, ilmiy meros, axloq, ta'lim, tarbiya, ma'naviy meros.*

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ ХУСАИНА ВАИЗА КОШИФИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются педагогические взгляды в творчестве обладателя энциклопедиста Хусаина Ваица Кошифи, роли образования в формировании молодежи как совершенной личности, а также о том, что научное наследие ученого сегодня имеет важное образовательное значение.

***Ключевые слова:** Хусейн Ваиз Кошифи, научное наследие, этика, воспитание, обучение, духовное наследие.*

POSSIBILITIES OF USING THE PEDAGOGICAL HERITAGE OF HOSSEIN VOIZ KOSHIFI IN THE EDUCATIONAL PROCESS

ABSTRACT

This article presents the views and opinions of the thinker Hussein Waiza Koshifi on the role of moral education in the harmonious and comprehensive improvement of the patriotism of the younger generation

***Key words:** Hussein Vaiz Koshifi, scientific heritage, ethics, education, training, spiritual heritage*

KIRISH

Buyuk mutafakkirlarning g'oyalarini, qarashlarini, o'gitlarini, o'rganish xalqimizning ma'naviyatini kengaytirish bilan birga yoshlarni komil inson kilib

tarbiyalashda xam muhim vositalardan biri xisoblanadi. Ta`lim - tarbiya jarayonida Sharq allomalarimiz merosini chuqur o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarimiz ongiga buyuk mutafakkirlarimizning ta`limiy –axloqiy fikr va qarashlarini singdirish, ularda vatanparvarlik, sobitqadamlik, bagrikenglik, iymon-e`tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Biz, ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz. Bukilmas iroda, fidoiylik va jasorat naamunasini amalda namoyon etib, o`z hayotini aziz vatanimizning har tomonlama ravnaq topishiga bag`ishlangan ustoz va murabbiylarimiz, zamondoshlarimiz bilan biz cheksiz faxrlanamiz”[1] deb alohida ta`kidlaganlar. Shu bois allomalarimiz tomonidan ilgari surilgan, mamlakat taraqqiyoti va ma`naviyatiniyuksaltirishga qaratilgan qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mutafakkirlarimizni ta`limiy-axloqiy qarashlarini zamonaviy nuqtai nazardan o`rganish davr talabidir.

Kamoliddin Husayn ibn Ali Voiz Koshifiy O`rta Osiyo va Xurosonning mashxur mutafakkirlaridan biridir. U axloq, mantiq, musiqashunoslik, nujum, tabobat, islom tarixi, riyoziyot, hisob, siyosat, insho yozish san`ati, va`z san`ati ilmiga oid yuzdan ortiq asarlar yaragan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Manbalarda keltirilishicha Husayn Voiz Koshifiy zamonasining yetuk fozil kishilaridan biri bo`lgan. U Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy bilan yaqin aloqada bo`lib, ular bilan hamkorlikda faoliyat olib borgan. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida “ Mavlono Husayn Voiz Koshifiy taxallus qilur, Sabzavorlikdur. Yigirma yilg`a yaqin borkim, shahardadur va Mavlono zufunun va rangin va purkor voqe` bo`lubtur. Oz fan bo`lg`aykim, daxli bo`lmag`ay. Xususan, va`z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida mutaayyin va mashxur ishlari bor ...”, [4] deb olim xaqida yozadi. Xondamir ham o`zining “Habib-us-siyar” asarida olim xaqida qimmatli fikrlar bildirib shunday deydi : “Voiz o`z davrining munajjimlik va insho ilmida beqiyos bo`lib, boshqa fanlarda ham kashshof edi. Shirin va maftunkor ovozi bilan vaziyatga maslahat berardi...” [4].

XV asrdan keyin ham olimlar mutafakkir ilmiy va adabiy merosiga katta etibor qaratganlar. Eron olimi Dexudo Koshifiy insho san`ati, nujum ilmidan tashqari matematika, xisob ilmini bilganligi va 35 dan ortiq risolalarning muallifi ekanligini ta`kidlaydi. [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Husayn Voiz Koshifiy falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, axloqshunoslikka, dinshunoslikka doir asarlar yaratdi. U yaratgan “Lubbi lubobi Masnaviy”, “Mahbub ul-zuhal”, “Badoe ul-afkor

fi sanoe-ul-ash'or", "Tavsiri Husayniy", "Axloqi Muhsiniy", "Anvari Suxaliy" asarlari bunga yorqin misoldir. Uning arab, fors, urdu tillarida yozilgan bu bebaxo merosi G'arb va Sharq mamlakatlarida sevib o'qilgan. Mutafakkirning aksariyat asarlari Moskva, Toshkent kutubxonalarida, Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida qo'lyozmalar fondida va chet mamlakatlarning kutubxona va muzeylarida saqlanmoqda. Koshifiyning "Risolai Xotamiya" asari 1883 yilda Parijda Sharl Shefer tomonidan chop etilgan. "Axloqi Muhsiniy" asari 1848 yilda nemis tiliga, 1851 yilda X.G.Kin tomonida ingliz tiliga, 1863 yilda o'zbek tiliga tarjima qilingan. "Axloqi Muhsiniy"ning qo'l yozmalari Britaniya muzeyi, Indiana ofisi, Parij milliy kutubxonasida mavjud. [3].

Tahlil va natijalar. Koshifiy o'zining ta'lim – tarbiyaga oid g'oyalarini asosan "Axloqi Muhsiniy", "Anvari Suxaliy", "Futuvvatnomai Sultoniy", "Risolai Xotamiya" asarlarida bayon qilingan.

Mutafakkir o'z pedagogik qarashlarida odamiylik, yaxshilik, kamtarlik, saxiylik, vijdoniylik, adolat, oliyximmatlik, insonni qadrlash, bag'rikenglik kabiy axloqiy fazilatlarni ilgari suradi. Uning asarlaridagi mavzular insonlarni chiroyli xulqli, sabrli, xayoli, shavkatli, marxamatli, saxovatli bo'lishga chorlaydi.

Husayn Voiz Koshifiy shaxsni jamiyatda o'rin topishida ta'lim- tarbiyani o'rni katta ekanligini ta'kidlaydi. U bolaga yoshlikdan ta'lim- tarbiya berish, unda yaxshi fazilatlarni tarkib toptirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Bola to'g'ri so'zli, vadaga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbiyalash kerakligini, bu masalaga ota-ona va muallimning alohida axamiyat berishini talab etadi. Shaxsning ma'naviy-axloqiy kamol topishida shukr va sabr qilishlik, chiroyli xulq va muloyimlik, vafo va ahd, omonat va diyonat, rostguylik, g'ayratli va shijoatlilik, farosatlilik, sir saqlash kabiy insoniy fazilatlar zarurligini ta'kidlaydi. Kishi faoliyatida aqliy tarbiyaning o'rniga katta baho berib, uni inson uchun kerak bo'ladigan eng zarur narsa deb tushunadi. Uni insonni mukammal qiluvchi, nomunosib harakatlardan chegaralovchi ma'naviy quvvat deb biladi. Aql asta sekin vujudga kelib mukammallashib, o'sishi mumkinligini aytadi.

Insonni hayvonot dunyosidan ajratib turuvchi narsa bu aql, ya'ni ongdir, - deydi. Koshifiyning "Qo'l quvvati ko'ngil quvvatiga tobedur" - degan gaplarida ham umuman ob'ektiv borliqni, tabiatni to'g'ri tushunganligini ko'rish mumkin. Uning qarashlari axloqiylikka, inson aqliga, insonning bilish qobiliyatining o'zgarishiga asoslanadi va borliq, hayot ya'ni harakat barcha mavjud narsalarning asosi ekanligi takidlanadi. Mutaffakir qarashlariga ko'ra aqlni yaxshilikdan, yaxshi amallardan ajratib bo'lmaydi. Inson qanday ishni amalga oshirmasin u aqlga suyanib ish qilishi lozim deb, aqlning kuchiga katta baho beradi. Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy ta'limotining

asosini - hayot, davr, bilim, aql tashkil etadi. Jamiyatdagi talab va odatlar, qonunlar axloqiy poklikni shakllantiradigan asos va me'yordir.

Xulosa va takliflar. Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik qarashlari nasihat, pand-nasihat, hikmatlarga boy bo'lib, katta tarbiyaviy kuchga ega bo'lib, go'zal odob-axloq tarbiyasida ulkan o'rin tutadi. Mutaffakirning hayoti va ma'naviy merosini chuqurroq o'rganish va unda qamrab olingan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarining nazariy masalalarini tahlil qilish xozirgi kunda yoshlarda axloqiy fazilatlarni namoyon etish imkonini beradi.

Husayn Voiz Koshifiyning pedagogik g'oyalaridan ijodiy foydalanish mamlakatimiz umumta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlar amaliyotida beqiyos o'rin tutadi. Allomaning ijodiy merosi yosh avlodni olijanoblik, o'zaro yordam ruhida tarbiyalash, inson hayotining og'ir damlarida qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ulug' mutafakkirning tarbiya va ta'lim uslublari haqidagi tavsiyalari, albatta, tarbiya va ta'limning ko'plab dolzarb va hayotiy muammolarini hal etishga ilmiy asoslangan yondashuvning muhim sharti hisoblanadi.

Koshifiy o'zining pedagogik g'oyalarida har bir inson aqlli, axloqiy tarbiyali bo'lishni istasa, adolat, mardlik, taqvo, donolik, fidoyilik, do'stlik, vafo, rahm-shafqat, taqvo, sezgirlik, qattiqqo'llik kabi muhim axloqiy tamoyillarga rioya qilishi shart, degan xulosaga keladi. Bu tamoyillarga rioya qilish insonning yuksak axloqiy tarbiyasidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Mirziyoyev.Sh. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. T.: 2016 y.
2. Aliqulov. H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. T. 2009.58-b
3. Ajdodlarimiz ma'naviy merosidan.T. Fan.2014. 160-b
4. Husayn Voiz Koshifiy. "Futuvvatnomai sultoniy". "Axloqi muhsiniy". T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashri, 2011 y. - 374 b
5. Alisher Navoiy Majolis ul-nafois.To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9- jild.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2011y. 377-378 b
6. Hoshimov K., S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1995 y - 464 b
7. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996.
8. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). - T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999.